

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11625076>

Suvankulov Saydulla Makkamovich

O'z-FinPI o'qituvchisi, saydullasuvankulov@gmail.com

Faxriddinov Muhammad Faxriddin o'g'li

O'z-FinPI o'qituvchisi, fakhreddinvmukhammad0@gmail.com

Kadirov Jamshid Xolmuhamad o'g'li

O'z-FinPI o'qituvchisi, jkadirov2020@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada didaktikaning ta'lim jarayonidagi o'rni, uning ob'ekti, predmeti va vazifalari, asosiy qonuniyat va kategoriyalari, ta'lim (o'qitish va o'qish) jarayonida yaxlit tizim sifatida alohida soha ekanligi hamda ta'lim jarayonlarining o'ziga xos tasnifi haqida asosiy tushunchalar yoritilib o'tildi.*

Kalit so'zlar: *Didaktika, o'qitish nazariyasi, umumiy didaktika, falsafa va sotsiologiya, siyosatshunoslik, etnologiya va pedagogik psixologiya, odam fiziologiyasi, ta'lim, ta'lim jarayoni, ta'lim tamoyillari, didaktik tamoyillar, bilim, ko'nikma va malakalar, o'rganish, o'rgatish, o'qish va o'qitish, tashkil etish, didaktik qobiliyat.*

Didaktika pedagogika va ma'rifiy nazariyaning nisbatan mustaqil qismi bo'lib, o'qitish va o'qish jarayonlari, ya'ni bilim, ko'nikma va malakalar o'zlashtirilishi hamda e'tiqodlar shakllanishining umumiy qonuniyatlarini ochib beradi, ma'rifat (ta'lim-tarbiya) mazmunining hajmi va tuzilmasini belgilaydi. "Didaktika" so'zi yunoncha "o'qitish", "o'rgatish" ma'nosini anglatadi.

Didaktika - ta'lim jarayoni, uning mazmuni, qonuniyatlari va tamoyillari, shuningdek shakllari, metodlari va vositalarini ilmiy asoslab beruvchi ta'lim nazariyasi, pedagogikaning alohida sohasidir.

Bu termin nemis pedagogi V. Ratke (1571-1635) tomonidan uning "Di-daktika yoki ta'lim san'ati» deb nomlangan ma'ruzasida (1613) fanning nazariy va metodologik asoslarini tadqiq qiluvchi ilmiy yo'nalish sifatida qo'llanilgan.

Didaktikaning fundamental ilmiy asoslari Ya.A. Komenskiy tomonidan ishlab chiqilgan. Bizga ma'lumki u 1657 yilda chex tilida «Buyuk didaktika» asarini yozadi. Ya.A. Komenskiy didaktikani «Hammani hamma narsaga o'rgatuvchi san'at» sifatida talqin etadi. Shu bois didaktika pedagogikaning "Nima uchun o'qitish kerak?", "Nimani o'qitish kerak?", "Qanday o'qitish kerak?", "Qanday hajmda o'qitish kerak?", "Kimnlarni o'qitish kerak?", "Qaerda o'qitish kerak?", "Nimadan foydalanib o'qitish kerak?" kabi savollariga javob izlaydi.

Didaktikaning mohiyatini ishlab chiqishda G. Pestalotstsi, I. Gerbart, K.D. Ushinskiy, V. Ostrogorskiy, P. Kapteyev kabi mashhur olimlar o'larining katta hissalarini qo'shishgan. Bu

yo'nalishda didaktlar Yu.K. Babanskiy, N. Gruzdev, M. Danilov, B. Yesipov, L. Zankov, M. Skatkin kabilar ham talaygina ishlarni amalga oshirishganlar.

Demak, didaktika - pedagogikaning ilm-ma'rifat va ta'lim muammolarini tadqiq etadigan bir qismidir. Buyuk allomalarimiz: Muhammad al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy asarlarida ham ta'lim, o'qitish va o'qishga oid sharqona didaktik qarashlar aks ettirilganligi ma'lum.

Quyida didaktikaga doir asosiy tushunchalar yoritilib o'tiladi. Didaktikaning ob'ekti, predmeti, vazifalari va asosiy kategoriyalari (tushunchalari):

Didaktikaning ob'ekti – ta'lim sohasi, o'qituvchi va o'quvchining mushtarak faoliyati;

Didaktikaning predmeti – o'qitish va o'qish jarayonlari, omillari, shart-sharoitlari, natijalari;

Didaktikaning vazifalari - kimga, nimani, qachon, qaerda, qanday o'rgatish (o'qitish) muammolarini ishlab chiqishdan iborat.

“Ta'lim” - didaktikaning bosh kategoriyasi bo'lib, “o'qitish”, “o'qish”, “ta'lim maqsadi”, “ilm-ma'rifat mazmuni”, “ta'lim qonunlari”, “ta'lim tamoyillari”, “ta'lim metodlari”, “ta'limni tashkil etish shakllari” esa asosiy kategoriyalar sirasiga kiradi. So'nggi paytlarda “bilim”, “ko'nikma”, “malaka”, “ma'lumot”, “ta'lim vositalari”, “ta'lim nazorati”, “ta'lim natijalari” kabi didaktik tizim va ta'lim texnologiyalariga oid tushunchalarga ham didaktik kategoriya maqomini berish taklif etilmoqdaki, bu ularning o'zaro uzviy bog'liqligidan dalolat beradi.

Ta'lim - ta'lim oluvchilarning ilmiy bilim, ko'nikma va malakalarni egallash, ijodiy qobiliyati, dunyoqarashi va axloqiy e'tiqodini rivojlantirish hamda faol o'quv-bilish faoliyatini tashkil etish va rag'batlantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon bo'lib quyidagicha tavsiflanadi:

O'qitish - o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini boshqarish; ta'lim jarayonining tarkibiy qismlaridan biri; o'qituvchi faoliyati.

O'qish – bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni egallash jarayoni, ta'lim jarayonining tarkibiy qismlaridan biri o'quvchi faoliyatidir.

Ma'lumot - bilim, ko'nikma va malakalar, tafakkur va faoliyat usullarini o'zlashtirishda erishilgan daraja.

Bilim - o'rganilgan ma'lumotlarni eslab qolish va qayta tushuntirib berish.

Ko'nikma - o'rganilgan bilimlarni tanish vaziyatlarda qo'llay olish.

Malaka - o'rganilgan bilim va shakllangan ko'nikmalarni notanish vaziyatlarda qo'llay olish va yangi bilimlar hosil qilish.

Kompetensiya – insonning mavjud bilim, ko'nikma va malakalarni kundalik faoliyatda qo'llay olish qobiliyati.

Ta'lim maqsadlari – o'quv jarayonini tashkil etuvchi (uyushtiruvchi) va yo'naltiruvchi, uning mazmuni, metodlari va shakllarini belgilovchi asos.

Ta'lim mazmuni – o'zlashtirilishi shaxs kamolotini ta'minlaydigan bilim, ko'nikma va malakalar, ijodiy faoliyat tajribasi va olamga hissiy-qadriyatli munosabatlar tizimining pedagogik adaptatsiyasi (moslashishi).

Ta'limning tashkiliy shakllari – bir-biridan didaktik maqsadlari, o'quvchilar tarkibi, o'tkazilish joyi, davomiyligi, o'qituvchi va o'quvchilar faoliyati mazmuni bilan farqlanadigan o'quv mashg'ulotlarining turlari.

Ta'lim metodi – o'qituvchi va o'quvchining belgilangan o'quv maqsadiga erishishga qaratilgan birgalikdagi, tartibli faoliyati.

Ta'lim usuli – metodning tarkibiy qismi; metodni amalga oshirishdagi bir martalik harakat (masalan, metod – kitob bilan ishlash, usul – guruhlar bo'yicha alohida mavzularni matnlashtirish).

Ta'lim vositalari – ta'lim, tarbiya va kamolot maqsadlariga erishish uchun ma'rifiy jarayonda o'quv axborotlari tashuvchisi hamda o'qituvchi va o'quvchilar faoliyati vositasi sifatida qo'llaniladigan tabiiy narsalar va inson tomonidan yaratilgan ob'ektlar.

Ta'lim nazorati – ta'lim jarayonining majburiy qismi, o'quv ishlari natijalarini o'lchovchi vosita, u qaytar aloqani ta'minlaydi, o'quv jarayonini tartibga solish (to'g'rilab turish) vositasi hisoblanadi.

Ta'lim natijalari – o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalar ham-da egallangan kompetensiyalardir.

Umumiy didaktika o'z navbatida ayrim fanlarga oid usullar bilan juda mustahkam bog'langan bo'lib, ularga oid ma'lumotlariga tayanib o'qitishning umumiy qonuniyatlarini ochib beradi va ayni vaqtda har bir o'quv fanini o'qitish usullari uchun umumiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Didaktika o'z oldiga o'qitishning o'quvchilarni har tomonlama tarbiyalash maqsadlariga javob beruvchi umumiy qonuniyatlarni bilib olish vazifasini qo'yadi.

O'qitish jarayoni pedagogning o'rgatuvchilik faoliyatini va ta'lim oluvchilarning maxsus tashkil etilgan bilish faoliyatini o'z ichiga oladi. Shu o'rinda bu jarayonlarning tahliliga e'tibor qarataylik. Ta'limda o'qituvchining boshqaruvchilik roli o'z kasbining ijtimoiy asoslaridan kelib chiqib, ajdodlarining boy tajribasini, insoniyatning asrlar davomidagi bilish, mehnat, muloqot, umumiy aloqalar, estetik hamda axloqiy qarashlar jarayonida qo'lga kiritgan yutuqlarni egallashni shart qilib qo'yadi.

Didaktika va metodika mustahkam aloqa hamda o'zaro bog'liqlikda amalga oshiriladigan jarayonlardir. Didaktika o'qitishning umumiy qonuniyatlarini o'rganadi. Aniq bir predmetni o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari xususiy metodikalarda ishlab chiqiladi.

Xususiy didaktika – muayyan o'quv fanlarini o'qitish qonuniyatlari, usullari, vositalari, shakllari va yo'llarini o'rgatuvchi metodika (tadris) fanlari ham pedagogika fanlari turkumining asosiy sohalaridan biri bo'lib hisoblanadi. U umumiy didaktika yutuqlari asosida rivojlanadi va uning nazariy umumlashmalariga asoslangan holdagina takomillashib boradi. Muayyan bir fanga tadbiq etilgan didaktik qonuniyatlar, o'sha predmetning

umumiy jihatlarini qonunlashtiradi va ularda o'qitishning universal jihatlari namoyon bo'ladi.

Didaktikaning boshqa fanlar bilan bog'liqligi. Ta'lim jarayoni jamiyat rivojlanishining ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy shart-sharoitlari, odamlar faoliyati va hayotiy ehtiyojlari, zamonaviy fan-texnika taraqqiyotining yutuqlariga hamma ta'lim oluvchilarning shaxsiy sifatlariga qo'yilgan katta talablarga asoslanadi.

Didaktika sohasidagi natijalar uning oldiga yangi-yangi masalalarni ko'ndalang qo'yadi. Bu muammolarni hal qilish boshqa fan yutuqlaridan maksimal darajada samarali foydalanishni talab etadi.

Falsafa va sotsiologiya jamiyat va atrof-muhit rivojining umumiy qonuniyatlari haqidagi fanlar sifatida odamlarning hayoti va faoliyatining ijtimoiy va boshqa o'ziga xos xususiyatlarini xisobga olishda didaktikaga yordam beradi.

Siyosatshunoslik ta'limdagi siyosiy hodisalar va jarayonlar bilan bog'liq didaktik masalalarni ochish uchun xizmat qiladi.

Etnologiya didaktikaga odamlarning milliy o'ziga xosliklarini to'g'ri hisobga olishda yordam beradi, ta'limda milliy tajribalar o'ziga xos xususiyatga ega.

Pedagogik psixologiya ta'lim jarayonida bilim, ko'nikma va malakalarni egallash jarayonining psixologik qonuniyatlari va tamoyillarini hisobga olishga imkoniyat beradi.

Odam fiziologiyasi ta'lim jarayonida odam tana tuzilishi va nerv tizimining ishlash qonuniyatlarining o'ziga xos xususiyatlari, ularning roli, ahamiyati va o'ziga xos vazifalarni ko'rsatishga yordam beradi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. Suvankulov, S. M. (2017). Master's thesis.
2. Juraev, H. H., & Suvankulov, S. M. (2023). Current Architectural Problems of Samarkand Ancient Center Centers. *International Journal on Integrated Education*, 5(6), 230-233.
3. Fakhriiddinov, M. Convenience of working with AutoCAD Software in Drawing and Drawing Geometry. *Fan va ta'lim integratsiyasi jurnali*, 165-170.
4. Fakhriiddinov, M. The impact of modern technology on education. *Fan va ta'lim integratsiyasi jurnali*, 165-170.
5. Faxriddin o'g'li, F. M. (2023). DUNYO TA'LIM USLUBLARIDAGI SARA DURDONALAR... *Научный Фокус*, 1(7), 190-193.
6. Suvankulov, S. M., & Kadirov, J. X. (2023). DESCRIPTION OF SAMARKAND CITY NODES (SOCIAL CENTER). *Academia Repository*, 4(11), 280-283.
7. Faxriddin o'g'li, F. M. (2024). FIN TA'LIM TIZIMINING GLOBAL O'QITISHDA TUTGAN O'RNI. *INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION*, 3(26), 152-155.
8. Faxriddin, S. (2024). TA'LIM MAZMUNINI TAKOMILLASHTIRISH TEXNOLOGIYASI. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 2(20), 183-187.

9. Teshaeovich, S. F. The Role of Didactic Games in the Training of Future Teachers. *International Journal of Innovations in Engineering Research and Technology*, 7(10), 62-64.
10. Teshaeovich, S. F. (2023). Contemplation Technology in the Global Process of the Future Primary School Teacher.
11. Faxriddin o'g'li, F. M. (2024). PIRLS–(PROGRESS IN INTERNATIONAL READING LITERACY STUDY)-XALQARO O'QUVCHILAR SAVODXONLIGINI BAHOLASH TIZIMI HAQIDA. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 2(20), 773-778.
12. Faxriddin o'g'li, F. M. (2024). PISA–(PROGRAMME FOR INTERNATIONAL STUDENT ASSESSMENT)–XALQARO O'QUVCHILARNI BAHOLASH DASTURI HAQIDA. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 2(20), 208-213.
13. Shodiyev, F. (2024). BOSHLANG 'ICH SINFLARDA O'QITUVCHILARINI TAYYORLASHDA DIDAKTIK O'YINLARDAN SAMARALI FOYDALANISH USULLARI. *Научный Фокус*, 1(12), 220-225.
14. Faxriddin, S. (2024). BOSHLANG 'ICH SINFLARDA INTERFAOL DARSLAR OLIB BORISH TEXNOLOGIYASI. *Научный Фокус*, 1(12), 214-219.
15. Namazovna, S. D., Makkamovich, S. S., & Zohirovich, D. Z. (2020). Aral Oasis as Potential Base for Development of the Tourism. *Indonesian Journal of Law and Economics Review*, 6, 10-21070.
16. Shodmonova, G. S. (2022). Uzbek Interpretation of Global Medical Terms. *Research Journal of Trauma and Disability Studies*, 1(9), 246-248.
17. Suvankulov, S. M., & Soliyeva, M. I. (2023). THE ROLE OF PENCIL PAINTING IN ARCHITECTURE, APPLIED AND FINE ARTS, ITS MAIN LAWS. *Finland International Scientific Journal of Education. Social Science & Humanities*, 11(5), 547-551.
18. Juraev, H. H., & Kadyrov, J. H. Architectural and Artistic Organization of the Facades of Modern Buildings in Historical Cities (on the Example of Samarkand City). *International Journal on Integrated Education*, 5(5), 162-164.
19. Xolmuhamad o'g'li, K. J., & Ilmurat o'g'li, E. Z. (2024). O'QUV NATYURMORT VA NATYURMORT KOMPOZITSIYASINI CHIZISHNING AYRIM XUSUSIYATLARI. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 2(21), 209-213.
20. Sultanova, D. N. (2018). the Emergence and relationship of monumental painting in the traditional architecture of Central Asia. *Young scientist*, (12), 59.
21. Faxriddin o'g'li, F. M. (2024). MUHANDISLIK KOMPYUTER GRAFIKASI VA CHIZMACHILIK FANIDAN DIDAKTIK OYINLI TEXNOLOGIYALARNING KREATIV AHAMIYATI. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 2(20), 6-12.
22. Faxriddin o'g'li, F. M. (2024). COMPUTER GRAPHICS IN THE SPHERE OF DRAWING DETAILS: ENHANCING CREATIVITY AND PRECISION. *INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM*, 4(37), 196-199.
23. Faxriddin o'g'li, F. M. (2023). XALQARO TA'LIM TIZIMIDA TEXNOLOGIYANING O'ZIGA XOSLIGI. *PROSPECTS AND MAIN TRENDS IN MODERN SCIENCE*, 1(6), 56-59.

24. Faxriddin o'g'li, F. M. (2023). O'ZBEKISTON VA FINLANDIYA MAKTABLARIDA TASVIRIY SAN'AT VA CHIZMACHILIK FANLARIGA QO'YILADIGAN TALABLARNING BIR-BIRIDAN FARQLANISHI. Научный Фокус, 1(7), 46-52.

25. Zhuraev, K. K., & Kadirov, Z. K. (2021). Features of the Artistic Life of Samarkand (In the 1920s). European journal of innovation in nonformal education, 1(2), 129-131.